



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(6)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 114 sahifa,
22-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA


“Kitobxonlar klubi” modelining ingliz tili to‘garak mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning kognitiv kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari.....	10
Madaminova Gulzira Gulamkadirovna	
Bo‘lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatida suggestiv yondashuvning o‘rni	14
Arolov Davronjon Davlataliyevich	
Akmeologik yondashuv asosida maktabgacha ta‘lim direktor o‘rinbosarlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish	19
Asatullayeva Sitora Dilmurod qizi	
Hozirgi o‘zbek tilida neologizmlarning tarixi va bugungi kun taraqqiyoti.....	22
Bektosheva Mehinbonu Abdumalik qizi	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari bolalarida jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	26
Djurayeva Dilfuza Nuriddin qizi	
Korpus lingvistikasi vositalari yordamida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining til tahlili ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	30
Eshonqulova Sarvinoz Yashinovna	
Talabalarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda sun‘iy intellektning o‘rni va ahamiyati.....	35
Hojiyeva Nasiba Bahodirovna	
Logopedik mashg‘ulotlarni tashkil etish va rejalashtirish moduliga oid mustaqil ta‘lim topshiriqlarini integrativ modellashtirishning innovatsion texnologiyalari.....	39
Ibroximova O‘g‘iloy Inomjon qizi	
Jismoniy tarbiya darslarida ortiqcha vaznli bolalarga differensial yondashuvning ahamiyati	43
Yuldashev Bobirjon Noibjon o‘g‘li	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotida xalq og‘zaki ijodi vositasida bolalarning axloqiy sifatlarini shakllantirishning ahamiyati.....	48
Muradxanova Munisaxon Ikrom qizi	
Bo‘lajak psixologlarda altruistik xulq motivlarini rivojlantirishning psixologik imkoniyatlari	54
Nusratova Mexriniso Baxshilloevna	
Inklyuziv ta‘lim tushunchasi va uning zamonaviy pedagogik paradigmalar tizimidagi o‘rni.....	59
Pulatova Dilfuza Azamkulovna	
Magistrlarda “Imposter sindromi”ni yengish orqali kreativ salohiyatni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari.....	66
Qayumov Baxtiyor Zokirjon o‘g‘li	
Kichik maktab yoshidagi bolalar nutqining fonematik rivojlanishi	70
Qurbonova Sevara Suyunovna	
Mikrobiologiya ta‘limida individual pedagogik texnologiyalarni joriy etish mexanizmlari	74
Raxmatov Oxunjon Soibjonovich	
“Estetik tarbiya”, “kreativ kompetensiya”, “estetik tarbiya mexanizmlari” tushunchalarining konseptual asoslari.....	79
Saidova Feruza Akramovna	
Zamonaviy ta‘lim jarayonida neyropedagogika yordamida nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.....	84
Sidiqova Yulduz Sobirovna	
“So‘nggi jadid” Begali Qosimovning ilmiy-pedagogik merosi.....	88
Toxirova Dilshoda Inom qizi	
Ona tili darslarida o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantiruvchi mashq va topshiriqlar ustida ishlash	92
Turg‘unova Nilufar Muxiddin qizi	
Ingliz, golland va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarning lingvostatistik xususiyatlari.....	96
Xaydarova Go‘zalxon	



Maktabgacha yoshdagi bolalarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishda yumshoq ko'nikmalarning ahamiyati.....	101
Xolmatova Dilshoda Sherali qizi	
Farzandlarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda oilaning pedagogik imkoniyatlari	105
Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna	
Yoshlarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish orqali sotsial manipulyativ ta'sirlarga psixologik barqarorlikni shakllantirish.....	109
Qosimova Sarvinoz Baxtiyorovna	



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA HAYOTIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA YUMSHOQ KO'NIKMALARNING AHAMIYATI



Xolmatova Dilshoda Sherati qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
 "Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim" fakulteti
 "Ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi"
 (maktabgacha ta'lim) magistranti

Taqrizchi: **Abdullayev Abduqayum**

CHDPU, pedagogika fanlari doktori, professor

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishda yumshoq ko'nikmalarning o'rni va ahamiyati yoritilgan. Zamonaviy ta'lim tizimida bolalarni nafaqat bilimlar bilan qurollantirish, balki ularni kundalik hayotda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga tayyorlash muhim vazifa hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan kommunikativlik, hamkorlik, tanqidiy fikrlash, muammoni hal qilish, ijodkorlik va emotsional intellekt kabi yumshoq ko'nikmalarni rivojlantirish dolzarb masalalardan biri sanaladi. Tadqiqotda maktabgacha yoshdagi bolalarda mazkur ko'nikmalarni rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan hamda samarali pedagogik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: hayotiy kompetensiyalar, yumshoq ko'nikmalar, maktabgacha ta'lim, kommunikativ kompetensiya, emotsional intellekt, hamkorlik, ijodiy fikrlash, shaxs rivojlanishi.

Abstract: This article highlights the role and importance of soft skills in the formation of life competencies in preschool children. In the modern education system, an important task is not only to arm children with knowledge but also to prepare them for successful functioning in everyday life. From this point of view, the development of soft skills such as communication, cooperation, critical thinking, problem solving, creativity and emotional intelligence is considered one of the urgent issues. The study analyzed the theoretical and practical aspects of the development of these skills in preschool children and developed effective pedagogical recommendations.

Key words: life competencies, soft skills, preschool education, communicative competence, emotional intelligence, cooperation, creative thinking, personal development.

Аннотация: В данной статье освещается роль и значение "мягких навыков" в формировании жизненных компетенций у детей дошкольного возраста. В современной системе образования важной задачей является не только вооружение детей знаниями, но и подготовка их к успешному функционированию в повседневной жизни. С этой точки зрения развитие таких "мягких навыков", как коммуникабельность, сотрудничество, критическое мышление, решение проблем, креативность и эмоциональный интеллект, рассматривается как один из актуальных вопросов. В исследовании проанализированы теоретические и практические аспекты развития этих навыков у детей дошкольного возраста и разработаны эффективные педагогические рекомендации.

Ключевые слова: жизненные компетенции, "мягкие навыки", дошкольное образование, коммуникативная компетентность, эмоциональный интеллект, сотрудничество, креативное мышление, личностное развитие.

KIRISH

Bugungi globallashuv va axborotlashuv sharoitida insonning muvaffaqiyati nafaqat uning bilim darajasi, balki turli hayotiy vaziyatlarda moslasha olish qobiliyati bilan ham belgilanadi. Shu sababli ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri bolalarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishdan iboratdir. Hayotiy kompetensiyalar shaxsning kundalik hayotda uchraydigan muammolarni mustaqil hal qilishi, atrofdagilar bilan samarali muloqot o'rnatishi, o'z faoliyatini rejalashtirishi va baholashi kabi qobiliyatlarni o'z ichiga oladi.

Maktabgacha yosh davri inson hayotidagi eng muhim rivojlanish bosqichlaridan biri hisoblanadi. Aynan shu davrda bolaning xarakteri, ijtimoiy munosabatlari, qadriyatlar va hayotiy ko'nikmalarining dastlabki poydevori

shakllanadi. Shu bois maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash, ularda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilishi zarur.

So'nggi yillarda pedagogika va psixologiya fanlarida "yumshoq ko'nikmalar" tushunchasi keng qo'llanilmoqda. Yumshoq ko'nikmalar insonning boshqalar bilan samarali muloqot qilishi, jamoada ishlashi, hissiyotlarini boshqarishi, muammolarni hal qilishi va o'z imkoniyatlarini namoyon eta olishini ta'minlaydigan universal kompetensiyalar majmuasidir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha yoshdagi bolalarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish va yumshoq ko'nikmalarni rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogika hamda psixologiya fanlarining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda ushbu muammo nafaqat alohida davlatlar miqyosida, balki xalqaro ta'lim tashkilotlari tomonidan ham keng o'rganilmoqda. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bolalarda kommunikativlik, hamkorlik, mustaqil fikrlash, emotsional intellekt va muammoni hal qilish kabi yumshoq ko'nikmalarni shakllantirish ularning keyingi ta'lim bosqichlaridagi muvaffaqiyatlari uchun muhim omil hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim pedagogikasining nazariy asoslarini yaratishda rus psixologi va pedagogi L. S. Vigotskiyning ilmiy qarashlari alohida ahamiyat kasb etadi. Olimning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasiga ko'ra, bolaning shaxs sifatida shakllanishi avvalo ijtimoiy muhit bilan o'zaro munosabat jarayonida amalga oshadi. Vigotskiy tomonidan ilgari surilgan "yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasi bolalarning kattalar va tengdoshlari bilan hamkorlikdagi faoliyati ularning intellektual hamda ijtimoiy rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatishini asoslaydi. Mazkur nazariya bugungi kunda yumshoq ko'nikmalarni rivojlantirish metodikasining ilmiy poydevorlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Bolalar rivojlanishining kognitiv jihatlarini o'rganishda J. Piajening ilmiy ishlari muhim manba hisoblanadi. Olim bolaning tafakkuri bosqichma-bosqich rivojlanishini ta'kidlab, uning atrof-muhit bilan faol o'zaro ta'siri bilim va ko'nikmalarning shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynashini ko'rsatib bergan. Piaje nazariyasiga ko'ra, bolalar turli muammoli vaziyatlarni mustaqil hal qilish orqali fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradilar. Bu esa tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish kabi yumshoq ko'nikmalarning shakllanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Amerikalik psixolog D. Goulman tomonidan ishlab chiqilgan emotsional intellekt nazariyasi ham yumshoq ko'nikmalarni o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Goulmanning fikricha, inson muvaffaqiyatining asosiy omillaridan biri uning hissiyotlarini boshqara olishi, boshqalarning his-tuyg'ularini tushunishi va samarali muloqot o'rnata bilishidir. Olim emotsional intellektning tarkibiy qismlariga o'zini anglash, o'zini boshqarish, motivatsiya, empatiya va ijtimoiy ko'nikmalarni kiritadi. Ushbu qarashlar maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional barqarorlik va ijtimoiy moslashuvchanlikni shakllantirishning nazariy asoslarini belgilaydi.

Xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham yumshoq ko'nikmalarning ahamiyatini tasdiqlaydi. Jumladan, UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan ta'lim konsepsiyalarida XXI asr ko'nikmalari sifatida kommunikativlik, hamkorlik, kreativlik va tanqidiy fikrlash alohida qayd etilgan. UNESCO mutaxassislarining ta'kidlashicha, zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun shaxs nafaqat akademik bilimlarga, balki turli ijtimoiy va hayotiy kompetensiyalarga ham ega bo'lishi lozim.

UNICEF tomonidan e'lon qilingan tadqiqotlarda esa maktabgacha yosh davrida ijtimoiy-emotsional rivojlanishni qo'llab-quvvatlash bolaning kelajakdagi o'quv faoliyati va ijtimoiy moslashuviga bevosita ta'sir ko'rsatishi ta'kidlangan. Tashkilot mutaxassislarining fikriga ko'ra, bolalarning muloqot qilish, his-tuyg'ularini ifodalash va boshqalar bilan hamkorlik qilish ko'nikmalari aynan ilk bolalik davrida faol shakllanadi.

OECD tomonidan ishlab chiqilgan "Future of Education and Skills 2030" konsepsiyasida ham yumshoq ko'nikmalar zamonaviy ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Mazkur hujjatda ta'limning asosiy maqsadi bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, o'quvchilarda murakkab muammolarni hal qilish, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat ekanligi qayd etilgan.

Mamlakatimiz olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda ham maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, F. R. Qodirova, M. M. Inoyatova va boshqa tadqiqotchilar maktabgacha ta'lim jarayonida bolalarning kommunikativ, ijtimoiy va shaxsiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik asoslarini yoritib berganlar. Ularning ilmiy ishlarida o'yin faoliyati, interfaol metodlar va innovatsion pedagogik texnologiyalar bolalarda yumshoq ko'nikmalarni shakllantirishning samarali vositalari sifatida tavsiflangan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'limga oid normativ-huquqiy hujjatlarida ham bolalarda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari"da bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishi, kommunikativ faolligi va mustaqil faoliyat ko'nikmalarini shakllantirish ta'lim-tarbiya jarayonining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.



Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishda yumshoq ko'nikmalar muhim o'rin egallaydi. Biroq mavjud tadqiqotlarning aksariyatida alohida ko'nikmalar o'rganilgan bo'lib, ularni hayotiy kompetensiyalar bilan uzviy bog'liq holda kompleks tadqiqotlash masalasi hali ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Shu sababli maktabgacha ta'lim jarayonida yumshoq ko'nikmalarni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlarini chuqurroq o'rganish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish zarurati mavjud.

Demak, ilmiy adabiyotlar tahlili maktabgacha yoshdagi bolalarda yumshoq ko'nikmalarni rivojlantirish ularning hayotiy kompetensiyalarini shakllantirishning muhim omili ekanligini tasdiqlaydi. Nazariy manbalar va amaliy tadqiqotlar natijalari mazkur yo'nalishda olib boriladigan ilmiy izlanishlarning dolzarbligini va amaliy ahamiyatini belgilab beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot maktabgacha yoshdagi bolalarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishda yumshoq ko'nikmalarning ahamiyatini ilmiy jihatdan o'rganishga qaratildi. Tadqiqot jarayonida pedagogika, psixologiya va maktabgacha ta'lim nazariyasi sohalarida mavjud ilmiy qarashlar hamda zamonaviy metodologik yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv, faoliyatga asoslangan ta'lim hamda ijtimoiy-konstruktivistik nazariyalar tashkil etdi.

Tadqiqot davomida maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanish xususiyatlari, ularning ijtimoiy-emotsional holati va kommunikativ faolligi bilan bog'liq ilmiy manbalar tahlil qilindi. Jumladan, L. S. Vigotskiyning ijtimoiy rivojlanish nazariyasi, J. Piajening kognitiv rivojlanish konsepsiyasi hamda zamonaviy kompetensiyaviy ta'lim tamoyillari metodologik asos sifatida xizmat qildi. Ushbu nazariyalarga ko'ra, bolaning rivojlanishi uning faol ishtiroki, atrof-dagilar bilan muloqoti va amaliy tajribasi asosida amalga oshadi. Shu sababli tadqiqotda yumshoq ko'nikmalarni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari kompleks tarzda o'rganildi.

Tadqiqotda bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Avvalo, nazariy tahlil metodi asosida mavzuga oid mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar, monografiyalar, ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar va normativ-huquqiy hujjatlar o'rganildi. Ushbu metod yordamida "hayotiy kompetensiya", "yumshoq ko'nikmalar", "ijtimoiy-emotsional rivojlanish", "kommunikativ kompetensiya" kabi tushunchalarning mazmun-mohiyati aniqlashtirildi hamda mavjud ilmiy qarashlar tizimlashtirildi.

Qiyosiy tahlil metodi orqali turli davlatlarning maktabgacha ta'lim tizimida yumshoq ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan tajribalari o'rganildi. Xususan, Finlandiya, Singapur, Janubiy Koreya va boshqa rivojlangan davlatlar ta'lim tizimlarida bolalarning kommunikativ, ijtimoiy va emotsional kompetensiyalarini shakllantirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar tahlil qilindi. Olingan natijalar mamlakatimizdagi maktabgacha ta'lim amaliyoti bilan taqqoslandi.

Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatish metodidan ham keng foydalanildi. Kuzatishlar maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ta'lim-tarbiya jarayonlari davomida amalga oshirildi. Bolalarning o'yin faoliyati, tengdoshlari bilan muloqoti, tarbiyachi bilan hamkorligi, muammoli vaziyatlarga munosabati va mustaqil qaror qabul qilish holatlari muntazam ravishda kuzatib borildi. Kuzatish natijalari maxsus qaydnomalar asosida tizimlashtirildi va tahlil qilindi.

Suhbat metodi yordamida tarbiyachilar, ota-onalar hamda mutaxassislarining fikrlari o'rganildi. Suhbatlar davomida bolalarda yumshoq ko'nikmalarni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish imkoniyatlari aniqlashtirildi. Olingan ma'lumotlar umumlashtirilib, ilmiy xulosalar chiqarishda foydalanildi.

Shuningdek, tadqiqotda pedagogik tajribalarni umumlashtirish metodidan foydalanildi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'llanilayotgan innovatsion metodlar, interfaol o'yinlar, rolli mashg'ulotlar va ijodiy faoliyat turlari o'rganilib, ularning bolalarda yumshoq ko'nikmalarni rivojlantirishdagi samaradorligi tahlil qilindi. Ayniqsa, jamoaviy o'yinlar, muammoli vaziyatlar yaratish, loyiha faoliyati va erkin muloqotga asoslangan metodlarning samarali natijalar berishi aniqlandi.

Tadqiqotning ishonchligini ta'minlash maqsadida olingan ma'lumotlar tizimli ravishda qayta ishlanib, tahlil qilindi. Tadqiqot natijalarini umumlashtirishda induksiya, deduksiya, tahlil va sintez metodlaridan foydalanildi. Olingan nazariy va amaliy ma'lumotlar o'zaro taqqoslanib, ilmiy asoslangan xulosalar shakllantirildi.

Natijada, maktabgacha yoshdagi bolalarda hayotiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida yumshoq ko'nikmalar muhim pedagogik omil ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi. Tadqiqot metodologiyasi asosida olingan natijalar bolalarning kommunikativ faolligi, emotsional barqarorligi, hamkorlik qobiliyati va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda interfaol pedagogik texnologiyalarning samaradorligini tasdiqladi. Mazkur metodologik yondashuvlar kelgusida maktabgacha ta'lim tizimida yumshoq ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlarni olib borishda muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, yumshoq ko'nikmalar hayotiy kompetensiyalarning tarkibiy qismi bo'lib, ular bolaning har tomonlama rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Xususan, kommunikativ ko'nikmalar bolalarning o'z fikrlarini erkin ifodalashi, tengdoshlari va kattalar bilan samarali muloqot o'rnatishi hamda ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishiga xizmat qiladi. Emotsional intellekt esa bolalarning o'z his-tuyg'ularini boshqarishi, boshqalarning hissiyotlarini tushunishi va nizoli vaziyatlarni tinch yo'l bilan hal etishiga yordam beradi. Shu bilan birga, hamkorlik, mas'uliyat, tanqidiy fikrlash va ijodkorlik kabi yumshoq ko'nikmalar bolaning mustaqil faoliyat yuritishi va turli vaziyatlarga moslasha olishida muhim omil hisoblanadi.

Tadqiqot davomida o'rganilgan ilmiy manbalar va amaliy kuzatishlar maktabgacha yoshdagi bolalarda yumshoq ko'nikmalarni rivojlantirish uchun o'yin faoliyati eng samarali vositalardan biri ekanligini ko'rsatdi. Ayniqsa, rolli o'yinlar, didaktik o'yinlar, jamoaviy topshiriqlar va ijodiy mashg'ulotlar bolalarda muloqot qilish, hamkorlikda ishlash, liderlik sifatlarini namoyon etish hamda muammoli vaziyatlarga yechim topish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bunday faoliyatlar jarayonida bolalar o'z fikrlarini erkin bayon qilishni, tengdoshlarini tinglashni va umumiy maqsadga erishish yo'lida birgalikda harakat qilishni o'rganadilar.

Shuningdek, tadqiqot natijalari yumshoq ko'nikmalarni rivojlantirishda tarbiyachi shaxsining o'rni va pedagogik mahorati alohida ahamiyatga ega ekanligini tasdiqladi. Tarbiyachining bolalar bilan samimiy munosabat o'rnatishi, qo'llab-quvvatlovchi ta'lim muhitini yaratishi hamda har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda faoliyatni tashkil etishi yumshoq ko'nikmalarning samarali shakllanishiga xizmat qiladi. Shu bois maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini muntazam rivojlantirib borish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari, oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari ham bolalarda yumshoq ko'nikmalarni rivojlantirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Ota-onalar va pedagoglarning hamkorligi asosida tashkil etilgan tarbiyaviy faoliyat bolalarning ijtimoiylashuvi va shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Oilada bolaga mustaqil qaror qabul qilish, o'z fikrini erkin ifodalash va mas'uliyatni his qilish imkoniyatlarining yaratilishi uning hayotiy kompetensiyalarini yanada mustahkamlaydi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, maktabgacha yoshda shakllangan yumshoq ko'nikmalar keyingi ta'lim bosqichlarida bolaning muvaffaqiyatli o'qishi, tengdoshlari bilan sog'lom munosabatlar o'rnatishi hamda jamiyatga moslashuvchan shaxs sifatida rivojlanishiga zamin yaratadi. Shu sababli maktabgacha ta'lim dasturlarida yumshoq ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar salmog'ini oshirish, interfaol metodlardan keng foydalanish hamda kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'lim jarayonini tashkil etish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maktabgacha yoshdagi bolalarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish bugungi ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy jamiyat sharoitida bolalarni faqatgina nazariy bilimlar bilan qurollantirish yetarli bo'lmay, ularni turli hayotiy vaziyatlarda to'g'ri yo'l topa olishga, samarali muloqot qilishga, muammolarni mustaqil hal etishga va jamoa bilan hamkorlikda ishlashga tayyorlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, maktabgacha ta'lim bosqichidayoq yumshoq ko'nikmalarni rivojlantirish bolalarning kelajakdagi shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy muvaffaqiyatlari uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Umuman olganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishda yumshoq ko'nikmalar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Kommunikativlik, hamkorlik, emotsional barqarorlik, kreativlik, tanqidiy fikrlash va mas'uliyat kabi sifatning erta yoshdan rivojlantirilishi bolalarning kelajakdagi muvaffaqiyatli hayoti uchun muhim shartlardan biri hisoblanadi. Shu bois maktabgacha ta'lim tizimida yumshoq ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish va amaliyotga keng joriy etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri sifatida e'tirof etilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Vigotskiy L.S. Pedagogik psixologiya. - Moskva: Pedagogika, 2018.
2. Piaje J. Bola psixologiyasi va pedagogika. - Moskva, 2019.
3. Belkina V.N. Maktabgacha pedagogika. - Moskva: Akademiya, 2020.
4. OECD. Future of Education and Skills 2030. - Paris, 2021.
5. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals. - Paris, 2020.
6. UNICEF. Early Childhood Development Framework. - New York, 2022.
7. O'zbekiston Respublikasi "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari". - Toshkent, 2022.
8. Inoyatova M.M. Maktabgacha ta'lim nazariyasi va metodikasi. - Toshkent, 2023.
9. Qodirova F.R. Maktabgacha pedagogika. - Toshkent, 2021.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(6)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.